

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘kon**lardagi narxlar inobatga olinmagan).*

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2022- yil 28- dekabr kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
48 000 so'mdan 78 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Navoiy shahrining "Sahovat bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (48 000 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Yangiyo'l shahrining "Ixtisoslashtirilgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori", Urganch shahrining "Urganch markaziy dehqon bozori" va Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiylar rastalarida 78 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorlarda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 50 000 – 55 000 so'mga sotilmoqda.



Qo'y go'shti
55 000 so'mdan 91 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal (55 000 so'm, arzonlashtirilgan rastalarda), shuningdek, maksimal (91 000 so'm, xususiylar rastalarida) narxi ham kuzatuv natijasiga ko'ra, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori" ro'yxatga olingan.

Kartoshka

3 000 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Navoiy shahrining “Sahovat” bozori, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori” va Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”da tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan yirik bo‘lmagan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (3 000 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”, “Oloy dehqon bozori” va “Qo‘yliq dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (6 000 so‘m) qayd etildi. Ushbu bozorlardagi arzonlashtirilgan rastalarda sotilayotgan kartoshkani minimal 3 500 – 4 000 so‘mdan xarid qilish mumkin.



Piyoz

3 000 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Qo‘yliq dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (3 000 so‘m) ro‘yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (6 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda piyozni minimal 3 500 – 4 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi

2 000 so‘mdan 5 000 so‘mgacha (kg)


Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da (2 000 so‘m) qayd etilgan.



Sabzi mahsulotining maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Oloy dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori”, “Qo‘yliq dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da 5 000 so‘m darajasida qayd etilgan. Ushbu bozorlarda sabzining minimal narxi 2 000 – 4 500 so‘mni tashkil etdi.

Tuxum

10 000 so‘mdan 17 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Farg‘ona shahrining “Markaziy dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” va “Qo‘yliq dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (10 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori” va “Oloy dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 17 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 11 000 – 14 000 so‘mni tashkil etgan.



Guruch

6 000 so‘mdan 27 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori” (“Nukus-2” va boshqa mahalliy navli guruchlar, 6 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” da 27 000 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorda guruchning minimal narxi 10 000 so‘mni tashkil etgan.

O‘simlik yog‘i

16 000 so‘mdan 30 000 so‘mgacha (litr)



O‘simlik yog‘ining kuzatuv natijasiga ko‘ra, minimal narxi Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”da (mahalliy paxta yog‘i 16 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozordagi xususiy tadbirkorlar rastalarida o‘simlik yog‘ini 24 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 30 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorda o‘simlik yog‘ini minimal 18 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Shakar

11 000 so‘mdan 14 000 so‘mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Navoiy shahrining “Saxovat bozori” va Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”da arzonlashtirilgan rastalarda (11 000 so‘m) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori” va Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da (14 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda shakarni minimal 11 000 – 12 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***

2022- yil 28- dekabr holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	50000	68000	4000	4500	2500	13000	6000	17500	11500
		max	70000	68000	5000	5000	4000	16000	18000	20000	14000
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	55000	70000	4000	4000	3000	14000	8000	19000	12000
		max	75000	85000	5000	5000	4000	16000	26000	26000	13000
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	65000	62000	4000	3750	2500	14000	8500	18500	12000
		max	75000	66000	5000	5000	3500	16000	22000	28000	13000
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	55000	60000	3300	3500	2800	13000	8000	17000	12000
		max	75000	75000	4800	4800	3200	15000	18000	23000	12000
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	80000	3300	3300	3000	13000	7000	16000	11600
		max	70000	82000	4500	5000	4000	14000	20000	24000	12500
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	48000	65000	3000	3000	2000	11000	8000	17000	11000
		max	73000	70000	4500	5000	3000	15000	19000	24000	14000
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	55000	75000	3300	3800	2200	11000	6000	16500	12000
		max	70000	85000	5000	5000	2800	14000	19000	20000	14000
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	58000	64000	3000	3000	2000	10500	7500	18000	11500
		max	75000	78000	5000	5000	3000	15500	21000	26000	12500
9.	Termiz shahar "Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	60000	70000	4000	4000	3000	14000	7000	17000	12000
		max	70000	80000	5000	5000	4000	16000	20000	21000	13000
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	55000	80000	3300	4000	2000	12000	7000	16500	11500
		max	75000	85000	4500	5000	3000	16000	22000	23000	13000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	55000	58000	3000	4000	2500	10000	6500	16600	11000
		max	70000	78000	5000	5000	4000	16000	20000	24000	13500
12.	Yangiyo'l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori”	min	55000	58000	4000	4000	3500	11000	8000	18000	12000
		max	78000	82000	4500	4200	3800	14000	21000	22000	13000
13.	Farg'ona shahar “Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	60000	70000	4000	3500	2500	10000	8000	16600	12000
		max	75000	80000	5000	5000	3000	14500	19000	21000	12000
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	50000	75000	3500	3500	3000	13000	10000	17500	12000
		max	78000	80000	5500	6000	4000	15000	20000	22000	13000
15.	Toshkent shahar “Eski jo'va dehqon bozori”	min	55000	60000	3500	3000	4500	10000	9000	17500	11500
		max	74000	85000	5000	4500	5000	15000	23000	24000	12000
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	55000	60000	4000	4000	3000	14000	10000	18000	12000
		max	75000	90000	6000	6000	5000	17000	27000	30000	12000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	50000	55000	3500	3500	2500	11000	8000	17500	11500
		max	78000	91000	6000	5500	5000	17000	22000	25000	14000
18.	Toshkent shahar “Qo'yliq dehqon bozori”	min	49500	70000	3500	3000	3000	10000	7000	17000	12000
		max	75000	85000	6000	5000	5000	15000	21000	23000	13000
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	50000	60000	3500	3000	2000	12000	10000	17500	12000
		max	70000	85000	5000	4500	5000	16000	23000	25000	13000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.